

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI	217
Atayev Jaxongir Erkinovich	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
M.O.Yuldoshova	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
Iminova Nargizaxon Akramovna	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich

Toshkent International University mustaqil izlanuvchisi

E-mail: s.abduvaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsiya siyosati, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish va boshqarish masalalari tahlil qilingan. Investitsiya strategiyalari, xususan passiv va agressiv yondashuvlar, daromadlilik egri chizig'i asosida qaror qabul qilish hamda foiz stavkalari o'zgarishining portfel rentabelligiga ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, duration (o'rtacha og'irlikdagi to'lov muddati) ko'rsatkichi orqali foiz riskini boshqarish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish va risklarni minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsion faoliyat, investitsiya siyosati, investitsion portfel, qimmatli qog'ozlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the investment policy of commercial banks, as well as the issues of forming and managing a securities portfolio. Investment strategies, particularly passive and aggressive approaches, decision-making based on the yield curve, and the impact of interest rate changes on portfolio profitability are thoroughly examined. In addition, mechanisms for managing interest rate risk using the duration indicator (weighted average maturity) are considered. The research findings are significant for improving the efficiency of commercial banks' investment activities and minimizing risks.

Keywords: commercial banks, investment activity, investment policy, investment portfolio, securities, financial stability.

Аннотация. В статье анализируются вопросы инвестиционной политики коммерческих банков, формирования и управления портфелем ценных бумаг. Рассматриваются инвестиционные стратегии, в частности пассивный и агрессивный подходы, принятие решений на основе кривой доходности, а также влияние изменения процентных ставок на рентабельность портфеля. Кроме того, исследуются механизмы управления процентным риском с использованием показателя дюрации (средневзвешенного срока платежей). Результаты исследования имеют важное значение для эффективной организации инвестиционной деятельности коммерческих банков и минимизации рисков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная деятельность, инвестиционная политика, инвестиционный портфель, ценные бумаги, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining investitsiya faoliyati ularning moliyaviy barqarorligi va daromadlilikini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish nafaqat daromad manbai, balki likvidlikni boshqarish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli investitsiya portfelini shakllantirish, diversifikatsiya qilish va samarali boshqarish masalalari dolzarb hisoblanadi.

So'nggi yillarda investitsiya qarorlarini qabul qilishda vaqt omili, foiz stavkalari dinamikasi hamda bozor kon'yunkturasini chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, daromadlilik egri chizig'i asosida investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va duration ko'rsatkichi orqali foiz riskini boshqarish zamonaviy bank amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsiya siyosatini shakllantirish, turli investitsiya strategiyalarining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, qimmatli qog'ozlar portfelini samarali boshqarish usullari tahlil qilinadi.

Bank qimmatli qog'ozlar turini kutilayotgan daromad va tavakkalchilik, garovga qo'yiladigan talablar hamda soliq xususiyatlaridan kelib chiqib tanlaganidan so'ng, bank oldida ushbu qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiyalash va ularni boshqarish masalasi yuzaga keladi. So'nggi yillarda investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda vaqt omiliga alohida e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tijorat banklarining investitsiya siyosati va uni amalga oshirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rish mumkin. Xususan, Ye.S. Taxikov ilmiy izlanishlarida "tijorat banklarining investitsiya siyosati investitsiya faoliyatining maqsadli tizimini shakllantirish va ularga erishishning eng samarali usullarini tanlash, tashkiliy jihatdan esa investitsiya aktivlarining maqbul hajmlari va tuzilishini ta'minlashga, riskning maqbul darajasida ularning rentabelligini oshirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida ifodalanadi", deb ta'kidlaydi [14]. Investitsion siyosat tijorat banklari tomonidan investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha taktik va strategik rejalashtirishni talab etadi.

D.D. Rafailova fikriga ko'ra, "investitsion strategiya deganda investitsiya faoliyatining uzoq muddatli maqsadlari va ularga erishish yo'llarini belgilash tushuniladi hamda uning keyingi tafsiloti investitsiya aktivlarini taktik jihatdan boshqarish, shu jumladan qisqa muddatli davrlar uchun operatsion maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalarini ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi" [13]. Shuning uchun investitsiya strategiyasini ishlab chiqish investitsiyalarni boshqarish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir.

Tijorat banklari investitsion strategiyasini shakllantirish masalalari xorijiy iqtisodchilardan G. Iannotta, P.F. Kolesov, A.I. Karapetyan, Yu.A. Babicheva, G.L. Beloglazova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan [2, 3, 6, 9, 10].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh. Abdullayeva, N. Jumayev, N. Karimov, A. Omonov, F. Dodiyevlarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining investitsion siyosati va banklar investitsion faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan [1, 5, 7, 12].

Ilmiy tadqiqotlar asosida ta'kidlash mumkinki, investitsiya taktikasi investitsiya strategiyasining maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bunda investitsiyalarning hajmi va tarkibini aniqlash, ularni yuqori rentabelli loyihalarga yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish, zarur hollarda daromadlilik darajasi kamayishni boshlagan aktivlarni investitsiya portfelidan chiqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish modellarini ishlab chiqish hamda ushbu qarorlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Investitsion taktikani shakllantirish banklar investitsion strategiyasida belgilangan yo'nalishlar doirasida sodir bo'ladi va ularni istiqbolda amalga oshirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, bu jarayonda investitsion qo'yilmalarning tarkibi va hajmi aniqlanadi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Ushbu yondashuv tijorat banklarining investitsion strategiyasini shakllantirish, baholash va qimmatli qog'ozlar portfelini samarali boshqarish bilan bog'liq jihatlarni ilmiy asosda tadqiq etishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida bank investitsiya strategiyasining passiv (kutish va kuzatish) hamda agressiv (qulay bozor imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan) turlaridan foydalaniladi.

Passiv strategiya bo'yicha investitsiya siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari ko'pincha qimmatli qog'ozlarni diversifikatsiya qilish usulidan foydalanadilar. Bu esa bosqichma-bosqich investitsiya portfeli tarkibini o'zgartirib borish orqali risklarni kamaytirish va barqaror daromad olish imkonini beradi.

Agressiv strategiya odatda kichikroq moliya institutlari tomonidan qo'llaniladi. Bu yondashuvda maqbul maksimal muddat tanlanib, ushbu davr ichida bir necha interval belgilangani holda, har bir intervalda teng nisbatda qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritiladi. Ushbu strategiya investitsiya daromadlarini maksimal darajada oshirmasa ham, foyda farqini kamaytirish afzalligiga ega bo'lib, murakkab boshqaruv jarayonlarini talab qilmaydi. Shuningdek, agressiv yondashuv investitsiya moslashuvchanligini oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarning to'lov muddatlarini bosqichma-bosqich tartibga solish natijasida muddati tugagan aktivlar bo'yicha qaytarilgan mablag'lar uzoq muddatli va yuqori daromadlilikka ega bo'lgan yangi qimmatli qog'ozlarga qayta investitsiya qilinishi mumkin. Bu esa bankning investitsiya daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida nazorat va tartibga solishni soddalashtiradi. Shuningdek, tijorat bankining investitsiyalardan daromad olish orqali likvidlik darajasini ta'minlaydi.



Investitsion faoliyatni amalga oshirishning bosqichma-bosqich yondashuvi turli muddatlarda daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga asoslangan bo'lib, bu investor uchun turli aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bo'yicha kutilayotgan daromad hajmining o'zgarishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuv doirasida investitsiyalar turli muddatlarda daromad keltiruvchi aktivlar o'rtasida teng taqsimlanishi mumkin.

Investitsion jarayonlarda banklar ishtirokini faollashtirish zarurati iqtisodiyot va bank tizimining o'zaro bog'liqlikda samarali rivojlanishi bilan belgilanadi. Umuman olganda, investitsion jarayonlarda banklar ishtirokining asosiy yo'nalishlari investitsion maqsadlarga bank mablag'larini yo'naltirish, investitsion xarakterdagi kreditlar berish, ulushli ishtirok etish va qimmatli qog'ozlarga mablag'larni joylashtirishni o'z ichiga oladi [2].

Investitsion portfelni shakllantirishda muhim yondashuvlardan biri bu qimmatli qog'ozlarning to'lov muddatlariga ko'ra mablag'larni vaqt oralig'ida teng taqsimlashdir. Bunday yondashuv chiziqli portfel strategiyasi deb ataladi. Bu strategiyani amaliyotda qo'llash nisbatan sodda bo'lib, har bir qimmatli qog'ozning muddati tugagach, bo'sh mablag'lar avtomatik tarzda muddati keyinroq tugaydigan yangi qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinadi. Natijada investitsion hisob yuritish talablari minimal darajaga tushadi va bank portfeli o'rtacha daromadlilikni ta'minlaydi [11].

Qisqa muddatli investitsiya strategiyasi tijorat banklari tomonidan keng qo'llaniladi. Unda faqat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar sotib olinadi va barcha investitsiyalar qisqa davr ichida joylashtiriladi. Bunday strategiyada portfelning asosiy vazifasi daromad olish emas, balki yuqori likvidlikni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Bu holatda investitsion portfel tezkor to'lov majburiyatlarini bajarish uchun asosiy moliyaviy manba sifatida qaraladi.


Uzoq muddatli investitsiya strategiyasi esa yuqori daromadlilikka qaratilgan bo'lib, banklar bu yondashuv orqali uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritadilar. Bunday strategiya "uzoq muddatli maqsadli yondashuv" sifatida tanilgan bo'lib, daromad olishni investitsiyaning asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Bunda likvidlik ehtiyojlarini qoplash maqsadida banklar odatda pul bozoridagi qisqa muddatli qarz vositalariga murojaat qiladilar. Biroq, ushbu strategiya yuqori darajadagi xavf bilan bog'liq bo'lib, noto'g'ri prognozlar yirik kapital yo'qotishlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga tez-tez moslashish zarurati yuqori tranzaksiya xarajatlarini yuzaga keltiradi. Shu bois, bu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun bozor kon'yunkturasi va foiz stavkalari dinamikasini chuqur va tizimli tahlil qilish zarur bo'ladi.

Foiz stavkasini kutish strategiyasi qimmatli qog'ozlarning daromadlilik egri chizig'i (yield curve) bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan ushbu egri chiziq foiz stavkalarining vaqt bo'yicha o'zgarishini ifodalaydi va investitsion qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu egri chiziq foiz stavkalarining turli muddatlar bo'yicha qanday shakllanishini aks ettiradi.

Qimmatli qog'ozlarning daromadlilik egri chizig'i — bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha bank tomonidan ularni sotib olishdan to to'lov muddati tugaguncha bo'lgan daromadlarning harakatini ko'rsatadigan grafik bo'lib, ushbu qimmatli qog'ozlar faqat to'lov muddatlari bo'yicha farqlanadi.

Ya'ni, daromadlilik egri chizig'i qimmatli qog'ozlarning to'lov muddatlariga qarab foiz stavkalari qanday o'zgarishini ma'lum bir vaqt nuqtasida grafik shaklida ifodalaydi. Turli qimmatli qog'ozlarga oid daromadlilik egri chiziqlari doimiy ravishda o'zgarib turadi, chunki ularning daromatlari har kuni o'zgaradi. To'lov muddatiga kelgan daromadlilik ko'rsatkichlari turlicha tezlikda o'zgaradi: qisqa muddatli foiz stavkalari uzoq muddatlilarga nisbatan tezroq oshadi, ammo bozor foiz stavkalari pasayganda ular odatda tezroq tushadi.


Daromadlilik egri chiziqlari bozordagi qimmatli qog'ozlarning narxi hamda ulardan olinadigan daromadning ma'lum bir davrdagi kutilayotgan o'zgarishlarini aks ettiruvchi prognozdir. Tijorat banklari ushbu egri chiziqlarni tahlil qilib, o'z investitsiya siyosati doirasida eng maqbul qarorlarni qabul qiladilar va shu asosda investitsiya portfelini shakllantiradilar.



1-rasm. Daromadlilik egri chizig'i

Teskari daromadlilik egri chizig'i qisqa muddatli foiz stavkalari uzoq muddatligiga nisbatan yuqori bo'lgan holatni ifodalaydigan, pastga yo'nalgan egri chiziqdir. Bunday egri chiziq odatda iqtisodiy turg'unlik (retsessiya) davrlariga xos bo'lib, u investorlarning uzoq muddatli obligatsiyalar bo'yicha daromadlar kelajakda pasayadi, degan kutilmalarini aks ettiradi (1-rasm). Chikago Federal rezerv banki ma'lumotlariga ko'ra, daromadlilik egri chizig'ining teskari shakli ko'pincha iqtisodiy faollikning susayishidan darak beradi.

Iqtisodiy pasayish davrida investorlar odatda xavfsizroq sarmoya vositalarini, ya'ni uzoq muddatli obligatsiyalarni tanlaydilar. Natijada obligatsiyalarga talab oshadi, ularning narxi ko'tariladi, daromadi esa pasayadi. Bu esa o'z navbatida daromadlilik egri chizig'ining teskari shaklini ifodalaydi.



2-rasm. Teskari daromadlilik egri chizig'i

Banklar daromadlilik egri chiziqdagi yordamida turli qimmatli qog'ozlarning kutilayotgan daromad o'zgarishlarini prognozlab, o'z investitsiya siyosatini ushbu tahlil natijalariga muvofiq shakllantiradilar. Misol uchun, agar hozir daromadlilik egri chizig'i past bo'lsa, lekin yaqin kelajakda oshishi kutilsa, bu qat'iy foizli (ya'ni o'zgarimas stavkali) qimmatli qog'ozlarning narxi pasayishini anglatadi. Shu sababli bank qisqa muddatli obligatsiyalarni sotib oladi. Ularning muddati tugaganda esa olingan mablag'ni daromadi yuqori aktivlarga qayta investitsiya qiladi. Bunday qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bank uchun likvid zaxira vazifasini ham bajaradi.

Aksincha, agar daromadlilik egri chizig'i yuqori bo'lsa, lekin pasayish tendensiyasi kuzatilsa, bu uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar hozircha yuqori daromad berayotganini anglatadi. Shu sababli bank uzoq muddatli obligatsiyalarni sotib oladi, chunki ular bozor sekinlashganda ham barqaror daromad keltiradi. Bunday holatda bank likvidligi qisqaradi va kreditlarga talab pasayadi.

Foiz stavkalari pasayganda esa bank obligatsiyalarni qayta baholaydi va ularning bozor narxi oshishidan foyda ko'radi. Foiz stavkalari eng past darajaga yetganda bank uzoq muddatli obligatsiyalarni sotib oladi va foydani yana qisqa muddatli aktivlarga yo'naltiradi. Daromadlilik egri chizig'i ijobiy (yuqoriga yo'nalgan) bo'lsa, bu uzoq muddatli foiz stavkalari qisqa muddatlilardan yuqori ekanini bildiradi.

Bu holat odatda bozor ishtirokchilari kelajakda foiz stavkalari oshadi, deb kutayotganida yuz beradi. Shu sababli investorlar uzoq muddatli obligatsiyalardan voz kechib, qisqa muddatli investitsiyalarga talabni oshiradi, chunki foiz stavkalari oshganda uzoq muddatli aktivlarning narxi ko'proq pasayadi.

Daromadlilik egri chiziqdagi salbiy egilishli (pasayuvchi) shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu holatda qisqa muddatli foiz stavkalari uzoq muddatlilikidan yuqori bo'ladi. Bunday vaziyat investorlar orasida kelajakda qisqa muddatli foiz stavkalari pasayadi, degan kutilmani yuzaga keltiradi. Shu sharoitda banklar o'z investitsiya portfelining bir qismini uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki foiz stavkalari pasayganda uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati oshadi. Salbiy egri chiziq odatda iqtisodiy siklning rivojlanish bosqichidan pasayish bosqichiga o'tish davrida yuzaga keladi. Bu davrda barcha foiz stavkalari pasayadi, biroq qisqa muddatli stavkalar uzoq muddatlilarga nisbatan tezroq pasayish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Daromadlilik egri chiziqdagi ba'zan gorizontal shaklda bo'lishi ham mumkin. Bunday holatda qisqa va uzoq muddatli foiz stavkalari deyarli bir xil bo'ladi, natijada investor to'lov muddati qanday bo'lishidan qat'i nazar bir xil daromad oladi. Investorga foiz stavkalarining istiqboldagi o'zgarishlarini prognozlash portfel tarkibini vaqt bo'yicha optimal taqsimlash imkonini beradi. Shunday qilib, daromadlilik egri chizig'ining shakli ushbu




strategiyada qaror qabul qilishda asosiy omil hisoblanadi. Daromadlilik egri chizig'ining normal, salbiy va tekis kabi turlari mavjud.

Agar egri chiziq normal qiyalikda bo'lsa (ya'ni uzoq muddatli foiz stavkalari qisqa muddatlilardan yuqori), bu iqtisodiy o'sish va foiz stavkalarining oshishi kutilayotganini bildiradi. Aksincha, salbiy qiyalik (teskari egri chiziq) foiz stavkalarining pasayishi yoki iqtisodiy turg'unlik ehtimolini anglatadi. Normal daromadlilik egri chizig'i qisqa muddatli obligatsiyalar bo'yicha past daromad, uzoq muddatli obligatsiyalar bo'yicha esa yuqori daromadni nazarda tutadi. Bu egri chiziq odatda iqtisodiy o'sish davrida kuzatiladi va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarning barqaror o'sish tendensiyasini aks ettiradi.

Daromadlilik egri chizig'i investorlar uchun foiz stavkalarining kelajakdagi yo'nalishini baholashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Agar egri chiziq normal qiyalikka ega bo'lsa (ya'ni uzoq muddatli stavkalar qisqa muddatlilarga qaraganda yuqori), bu iqtisodiy o'sish va foiz stavkalarining oshishini anglatadi. Aksincha, salbiy qiyalik (inversiya) foiz stavkalarining pasayishi yoki iqtisodiy turg'unlik ehtimolini bildiradi [6].

Normal daromadlilik egri chizig'i qisqa muddatli obligatsiyalar uchun past va uzoq muddatli obligatsiyalar uchun yuqori daromad olinishini nazarda tutadi. Bunday egri chiziq o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, bu holat odatda iqtisodiy o'sish davrida kuzatiladi va uzoq muddatli obligatsiyalar bo'yicha daromadlarning o'sishda davom etishini bildiradi.



3-rasm. Foiz stavkalarining o'zgarishi va qimmatli qog'ozlarning daromadlilik egri chizig'i (o'ng panel normal egri chiziq, chap panel salbiy egri chiziq)¹

Daromadlilik egri chizig'i (yield curve) foiz stavkalarining kelajakdagi o'zgarishlarini oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Uning shakli muddat nuqtai nazaridan banklar uchun qimmatli qog'ozlarning ortiqcha yoki past baholanganini aniqlash imkonini beradi. Daromadlilik egri chizig'i turli muddatlarda to'lanadigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad hajmini aks ettiradi.

Agar ma'lum bir qimmatli qog'ozning daromadi egri chiziqdan yuqorida joylashgan bo'lsa, bu qimmatli qog'oz "xarid uchun jozibador" hisoblanadi, chunki uning daromadi vaqtincha yuqori, narxi esa past hisoblanadi. Aksincha, agar qimmatli qog'ozning daromadi egri chiziqdan pastda bo'lsa, uni sotish yoki sotib olmaslik maqsadga muvofiq, chunki bu holatda qimmatli qog'oz bozor tomonidan ortiqcha baholangan bo'ladi.

Uzoq muddatli nuqtai nazardan esa daromadlilik egri chizig'i iqtisodiyotning o'sish yoki pasayish davrida ekanligini ko'rsatadi. Odatda egri chiziq iqtisodiy faollik oshgan davrlarda yuqoriga ko'tariladi, iqtisodiy inqiroz yoki pasayish paytida esa pasayuvchi tendensiyani namoyon etadi. Daromadlilik egri chizig'i banklarga yuqori daromad olish imkoniyatini baholash bilan bir qatorda, ushbu daromadni ta'minlash uchun qabul qilinishi lozim bo'lgan risk darajasini aniqlashga yordam beradi. Daromadlilik egri chizig'ining qiyaligi bankka investitsiya portfelining muddat tarkibini o'zgartirish orqali (uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni qisqa muddatlilarga yoki aksincha almashtirish natijasida) olinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha daromad miqdorini aniqlash imkonini beradi [10].

Biroq uzoq muddatli obligatsiyalar odatda kamroq likvid bo'ladi, ya'ni ularni tezda sotish orqali naqd pulga aylantirish nisbatan murakkabroq bo'ladi. Shu sababli bank mutaxassislari daromadlilik egri chizig'i asosida investitsiya muddatini uzaytirishdan olinadigan daromad o'sishini baholaydilar va bu foydani foiz stavkalarining kutilmagan o'zgarishlari tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlik muammosi yoki kapital yo'qotish xavfi bilan solishtiradilar.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatida foiz stavkalari dinamikasidan samarali foydalanish va portfel rentabelligini oshirish maqsadida turli strategiyalarni qo'llaydilar. Ularning orasida "svop" operatsiyasi, "daromadlilik egri chizig'idan foydalanish" va "almashtirish strategiyasi" muhim o'rin tutadi [3].

Agar daromadlilik egri chizig'i ijobiy qiyalikda bo'lsa, bank "daromadlilik egri chizig'idan foydalanish" (osedlanie krivoy dokhodnosti) deb ataluvchi usul orqali foyda olishi mumkin. Bu holatda bankning mas'ul

1 Investopedia.com

xodimi qimmatli qog'ozlarning muddati yaqinlashgani sari ularning narxining oshishini va daromadlilik darajasini kuzatadi. Agar egri chiziqning tikligi tranzaksiya xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'lsa, bank ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib, ularning narxi oshishi hisobiga foyda oladi va olingan mablag'larni yuqori daromad keltiruvchi uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga qayta investitsiya qiladi. Agar bu strategiya muvaffaqiyatli qo'llanilsa (ya'ni daromadlilik egri chizig'ining shakli bank uchun noqulay tomonga o'zgarmasa), bank nafaqat hozirgi davrda daromad oladi, balki kelajakda ham portfel qiymatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-jadval. Bank investitsiya strategiyalarining xususiyatlari

№	Strategiya nomi	Asosiy mazmuni	Maqsadi
1	"Svop" operatsiyasi	Bank turli obligatsiyalarni bir-biriga almashtiradi (past daromadli qimmatli qog'ozlarni yuqori daromadlilarga yoki kam risklilarni yuqori risklilarga).	Bozor foiz stavkalari o'zgarishidan foyda olish, portfel daromadlilikini oshirish.
2	"Daromadlilik egri chizig'idan foydalanish"	Bank egri chiziqdagi ijobiy qiyalikdan foydalanib, muddati qisqarayotgan obligatsiyalarni yuqori narxda sotadi va uzoqroq muddatli obligatsiyalarni sotib oladi.	Foiz stavkalari pasayishi sharoitida foyda olish va joriy daromadni oshirish.
3	"Almashtirish strategiyasi"	Bank qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni almashtirish orqali portfel tuzilmasini moslashtiradi.	Bozor sharoitiga mos ravishda daromadni optimallashtirish va riskni kamaytirish.

Biroq amaliyotda foiz stavkalari dinamikasi bo'yicha prognozlar doimo yuqori aniqlikka ega bo'lmaydi. Shu sababli banklar foiz stavkalarining o'zgarishlarini ishonchliroq prognozlash maqsadida, avvalo, mavjud foiz stavkalari tuzilmasini tahlil qiladilar va shu asosda daromadlilik egri chizig'ini ishlab chiqadilar. "Portfelni almashtirish" (pereklucheniya) strategiyasi (ya'ni, qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar o'rtasida o'tish) har doim ham o'zini oqlamaydi. Masalan, bank foiz stavkalari pasayishini kutib uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni xarid qilishi mumkin, biroq aksincha, stavkalar o'sishda davom etsa, bu yirik miqdorda zarar keltiradi. Bunday holatda bank likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun bozordan yuqori foiz stavkalarida qarz olishga majbur bo'ladi va shu bilan birga uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni past narxda sotishga majbur bo'ladi. Bunday holat jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga olib kelib, bankni defolt holatiga olib kelishi mumkin. Shu sababli banklar o'z portfelining bir qismini qisqa muddatli majburiyatlarda saqlab, likvidlik zaxirasini ta'minlashlari lozim. Bu ularni kutilmagan bozor o'zgarishlaridan himoya qiladi va foiz stavkalari keskin o'zgarishi sharoitida barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Iqtisodiy barqarorlik davrida qimmatli qog'ozlar bahosi sekin o'zgaradi va bu o'zgarishlarni oldindan prognoz qilish mumkin bo'ladi. Shu sababli tijorat banklari uzoq muddatli, puxta o'ylangan va tizimli investitsiya siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu maqsadda yirik tijorat banklari tarkibida maxsus investitsiya bo'limlari tashkil etiladi. Bu bo'limlarda investitsiya faoliyati bo'yicha malakali mutaxassislar faoliyat yuritib, qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qiladi va investitsiya siyosatini boshqaradi. Tijorat bankining boshqaruv tizimida investitsiya bo'limi odatda yordamchi rol o'ynaydi, chunki kreditlash va zaxiralarni boshqarish bo'limlari asosiy o'rinni egallaydi. Shunga qaramay, bankni boshqarish jamoaviy faoliyat bo'lib, barcha bo'limlar faoliyati direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-reja asosida muvofiqlashtirib borilishi zarur.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va daromadlilikini barqarorlashtirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlariga mablag' yo'naltirish samarali vosita hisoblanadi, chunki ular bank portfelining barqaror qismini tashkil etadi, risklarni kamaytiradi, daromadlarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi, likvidlik va kapitalni saqlashni ta'minlaydi, makroiqtisodiy o'zgarishlarga sezgirlikni kamaytiradi hamda portfel diversifikatsiyasi va strategik barqarorlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari investitsiya siyosatida davlat qimmatli qog'ozlarini ustuvor instrument sifatida qabul qilishi lozim [4].

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadi o'z mablag'laridan samarali foydalanish, daromadlilikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Bank aktivlarini shakllantirishda investitsiya portfeli tarkibi, uning likvidligi va xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat qimmatli qog'ozlari (DQQ) eng past riskga ega bo'lgan moliyaviy instrumentlar sifatida tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi [8].

Nazariy jihatdan tijorat banklari o'z portfelining risklarini diversifikatsiya qilish va daromadlilikini barqarorlashtirish maqsadida davlat obligatsiyalari va boshqa risksiz moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritadi. Shu tariqa banklar o'z mablag'larini xavfsiz instrumentlarga yo'naltirish orqali daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari — bu davlat tomonidan chiqarilgan qarz instrumentlari bo'lib, ularning asosiy xususiyatlari quyidagilar:




Past risk va kafolatlangan daromad: davlat qarzi odatda qaytarilish kafolatiga ega bo'lgani uchun investorlar uchun minimal kredit riskini ta'minlaydi. Bu xususiyat tijorat banklari investitsiya portfelida barqaror daromad manbaini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Likvidlik: ko'plab davlat qimmatli qog'ozlari bozor sharoitida tez va minimal xarajat bilan realizatsiya qilinishi mumkin. Shu sababli banklar likvidlikni ta'minlash va qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniga ega bo'ladi.

Foiz daromadlarini prognoz qilish: davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz daromadlari oldindan belgilangan va barqaror bo'lgani uchun banklar uzoq muddatli moliyaviy rejalarini aniqlik bilan tuzishi mumkin.

Portfel diversifikatsiyasi: tijorat banklarining investitsiya portfeli aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa instrumentlarni o'z ichiga oladi. Davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar kiritish orqali portfelning umumiy riskini kamaytirish va daromadlarni barqarorlashtirish mumkin.

Bu borada "O'zsanoatqurilishbank" ATB investitsiya portfelida risksiz davlat qimmatli qog'ozlari ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish orqali aktivlar likvidligini oshirmoqda va portfel tarkibini diversifikatsiya qilmoqda. Mazkur yondashuv bank aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi muddat nomutanosibligini kamaytirish, likvidlik risklarini muvozanatlash hamda foiz daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda (4-rasm).



4-rasm. "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan risksiz davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm)

4-rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan muddati 3 yildan ortiq bo'lgan obligatsiyalar hajmida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2021-yilda ushbu turdagi obligatsiyalar bo'yicha investitsiyalar mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2022-yilda ularning hajmi 48,21 mlrd so'mni tashkil etgan.

2023–2024-yillarda muddati 3 yildan ortiq bo'lgan obligatsiyalar hajmida mo'tadil o'sish kuzatilgan. Xususan, 2022–2023-yillarda ushbu ko'rsatkich 48,21 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 58,21 mlrd so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 120,7 % ga o'sgan.

Mazkur holat bank investitsiya siyosatida uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga nisbatan ehtiyotkor, biroq izchil kengayib borayotgan yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu davrda obligatsiyalar hajmining bosqichma-bosqich oshirilishi bank tomonidan risklarni muvozanatli boshqarish va investitsiya portfelini barqarorlashtirishga qaratilgan strategiya olib borilganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayoni muayyan risk darajasida investitsiya aktivlarining rentabelligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat. Shu bois tijorat banklarining investitsiya faolligi investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlarini shakllantirish va ularga erishishning eng samarali usullarini tanlash bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun banklar tomonidan investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarining investitsiya siyosati uzoq muddatli va murakkab jarayon bo'lib, unda investitsiya aktivlari tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori rentabelli aktivlar ulushini oshirish hamda ehtimoliy risk darajasida foydalilikni maksimal darajaga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi aks etadi. Investitsiya siyosatining muhim elementlari sifatida bank investitsiya faoliyatini boshqarishning strategik va taktik jarayonlari namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining investitsiya siyosati investitsiya faoliyatining maqsadli tizimini shakllantirish hamda ushbu maqsadlarga erishishning eng samarali usullarini tanlashni nazarda tutadi. Tashkiliy jihatdan esa u investitsiya aktivlarining maqbul hajmi va tuzilishini ta'minlash, shuningdek qabul qilinadigan risk darajasida rentabellikni oshirishga yo'naltirilgan investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi sifatida amal qiladi.

Tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini faollashtirish hamda ularning investitsion faolligini oshirish maqsadida banklar tomonidan likvidli va barqaror qiymatga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni fond bozorida joylashtirish, shuningdek banklarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalar hajmini oshirish lozim. Ushbu holat moliya va sanoat tarmoqlarining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish bilan birga bank tizimi hamda real sektor korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va daromadlilikini barqarorlashtirish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlariga mablag' yo'naltirish samarali vosita hisoblanadi, chunki ular bank portfelining barqaror qismini tashkil etadi, risklarni kamaytiradi, daromadlarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi, likvidlik va kapitalni saqlashni ta'minlaydi, makroiqtisodiy o'zgarishlarga sezgirlikni kamaytiradi hamda portfel diversifikatsiyasi va strategik barqarorlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari investitsiya siyosatida davlat qimmatli qog'ozlarini ustuvor instrument sifatida qabul qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva, Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 732 b.
2. Банковское дело: справочное пособие / под ред. Ю.А. Бабичева. – М.: Экономика, 2004. – 412 с.
3. Банковское дело: учебник для вузов / под ред. Г.Л. Белоглазова, Л.И. Кроливецкой. – СПб.: Питер, 2009. – 384 с.
4. Белоглазова, Г.Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014. – 652 с.
5. Dodiyev, F. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2014. – № 3.
6. Iannotta, G. Investment Banking: A Guide to Underwriting and Advisory Services. – Berlin, Heidelberg: Springer-Verlag, 2010. – 208 p.
7. Jumayev, N.X., Karimov, N.G'. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2011. – № 1 (sentyabr).
8. Маркова, О.М., Сахаров, С.Л., Сидоров, Н.В. Коммерческие банки и их операции. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 257 с.
9. Карапетян, А.И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., 2011. – С. 9–10.
10. Колесов, П.Ф. Инвестиционная деятельность как фактор повышения конкурентных преимуществ коммерческого банка: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – СПб., 2013. – 23 с.
11. Ковалев, М.М., Румас, С.Н. Банки развития: новая роль в XXI веке: монография. – Минск: Изд. центр БГУ, 2016. – 151 с.
12. Omonov, A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.
13. Рафаилова, Д.Д., Аджиева, А.Ю. Инвестиционная политика банка // Аллея науки. – 2017. – № 13. – С. 67–75.
14. Тахиков, Е.С. Проблемы определения рисков инвестиционных проектов // Аудит и финансовый анализ. – 2010. – № 3. – С. 11–...

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100